



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMGA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI VA
RIVOJLANISH OMILLARI**

XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил, 1 -2 апрель

Бухоро - 2021

10. O'qituvchining yangicha roli - tyutor maxsus psixologik-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etuvchi, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishlaridagi maslahatchi - ustoz ekanligi.

11. Ta'lim sifatining o'ziga xos nazorati – masofaviy o'qitishda nazorat shakli sifatida masofaviy imtihonlar, suhbatlar, amaliy, kurs va loyiha ishlari, eksternat, kompyuterli intellektual test o'tkazuvchi tizimlar qo'llaniladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, masofaviy o'qitish sifatining nazorati muammolar yechimi, ta'lim standartiga mosligi ta'limning barcha tizimi muvaffaqiyati uchun ahamiyatga ega.

Shunday qilib, masofaviy o'qitish ta'lim jarayonining asosini ta'lim oluvchining maqsadga yo'naltirilgan va nazorat qilinadigan intensiv mustaqil ishi tashkil etadi. U belgilangan jadval bo'yicha o'zi uchun qulay joyda mustaqil o'qishi, tyutorlar bilan telefon, faks, elektron pochta orqali aloqa o'rnatishi mumkin.

Umuman olganda, masofaviy o'qitishni uzluksiz ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha jahonda yetarlicha tajriba to'plangan va ularning tahlilining ko'rsatishicha masofaviy o'qitish, an'anaviy ta'lim muassasalaridagi o'qitishga qaraganda arzoniga tushadi. Shuningdek, ko'pchilik olimlar tomonidan masofaviy o'qitish uchinchi ming yillikda istiqbolli ta'lim tizimi bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aduqodirov A. A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari. // J. Fizika, matematika va informatika. - Toshkent, - 2004. - №5. - B. 50-56.

2. Alimov R. X., Xayitmatov O'. T., Xakimov A. F., Yulchieva G. T., Azamatov O. X., Otajonov U. A. Axborot tizimlari.–T., 2013. –38–50 b.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. - Toshkent: "Fan", 2007. - B. 160.

4. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2020,–142 b.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH

**G. E.Saidova, BuxDU o'qituvchisi
A. Sh. Qoryog'diyeva, BuxDU talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishda bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: matematika, masala, amaliy, qobiliyat, fikrlash, ko'nikma.

Аннотация. В данной статье написано о том, что на уроках математики в начальных классах учащиеся совершенствуют свои знания, умения и навыки в решении логических задач.

Ключевые слова: математика, задача, практика, способность, мышление, умение.

Annotation. In this article it is written about the improvement of knowledge, skills and skills of students in solving logical problems in the lessons of elementary mathematics.

Key words: mathematics, matter, practical, ability, thinking, skill.

Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Bola maktabdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. O'quvchilarning qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchiga eng sodda masala orqali murojaat qiladi. Masalan: "Sening to'rtta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo'ldi?"

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar yechishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Eng asosiylaridan yana biri masalalar yechish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalari puxta o'rganadi. Matematik tili rivojlanadi. qisqasi, masala bu nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi muhim zvenodir.

Arifmetik amallarning mazmunini, amall komponentlari orasidagi bog'lanishlarni, ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar malakalarini va ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hakoazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish ortadi, umuman, mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qitirish ham kerak.

Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rschlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarning fikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechishda o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali matnli masalalar yechishdagi qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadida masalalar to'plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yo'lga qo'yilsa boshlang'ich matematik ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. –T., 2003-yil.
2. Boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. II- qism -T, 2018-yil.
3. Axmedov M. va b.q. 1-sinf “Matematika” darsligi. –T., 2020-yil.
4. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K. To'rtinchi sinf matematika darsligi. –Toshkent: “O'qituvchi”, 2017-yil.
5. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang'ich matematika tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (KHK uchun). –Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2013-yil.
6. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi (KHK uchun). –Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2012-yil.

MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK FIGURALARNI O'RGATISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**O'. Olloqova, BuxDU o'qituvchisi,
G. Murodova, BuxDU talabasi**

Anatatsiya. Boshlang'ich maktabda ta'lim o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishga, egallagan bilimlarini hayotga tatbiq eta olishga xizmat qiladi. Matematika darslarida o'quvchilarning shakllarni tez va oson idrok eta olishining asosiy vositalardan biri bu – didaktik o'yilardan o'rinli foydalana olishdir. Maqolada matematika darslarida o'quvchilarga geometrik figuralarni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: interfaol metod, didaktik o'yin, “Kim chaqqon”, tarqatma materiallar, ta'lim jarayoni.

Аннотация. Обучение в начальной школе служит формированию и развитию у учащихся навыков логического мышления, умения самостоятельно излагать свои мысли, применять полученные знания на практике. Одним из основных средств быстрого и легкого восприятия учащимися форм на уроках математики является – уместное использование дидактических слов.

В статье изложены идеи дидактических игр, которые можно использовать для обучения учащихся геометрическим фигурам на уроках математики.

Ключевые слова: *интерактивный метод, дидактическая игра, “Кто ловкий”, раздаточный материал, образовательный процесс.*

Annotation. *Education serves to formulate and develop students' logical thinking skills, to express their thoughts independently, to apply the acquired knowledge to life in primary school. One of the main easy – to-comprehend tools for students to take forms is to take didactic and reasonably use v-Games quickly in math lessons. The article describes the opinions about didactic games that can be used in teaching geometrical figures to students in mathematics lessons.*

Key words: *interactive method, game, didactic “Who is enthusiastic”, handout materials, educational process.*

Mamlakatimiz taraqqiyotga yuz tutgandan beri barcha rivojlangan mamlakatlar singari ta'limni modernizatsiyalash, yangi ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirishning optimal variantlarini tanlash masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqda. Dunyo tajribasidan ma'lumki, mamlakat rivoji uchun iqtisodiy inqirozdan ko'ra ta'lim sohasidagi inqiroz o'ta xavflidir. Shunday ekan, har bir mamlakatning ertangi kuni, rivoji va gullab yashnashi ta'lim sohasining rivojlanishi, kadrlar salohiyatining yuksakligiga bog'liq. Butun dunyo miqyosida globallashtirish jarayonlarining tezlashuvi natijasida bir qancha zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari ko'pgina davlatlarning ta'lim sohasiga kirib kelishga ulgurdi. Endilikda bir paytning o'zida o'qib, eshitib va ko'rib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiyadan iboratdir. Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchida tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini erkin bayon qila olish va mustaqil munozara - bahsga kirisha olish ko'nikmasi tarkib topadi. Interfaol metodlar tufayli o'qituvchi va o'quvchi munosobatlari yaxshilanadi, dars davomida qo'yilgan maqsadga oson erishiladi, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalari shakllanadi. Bugungi ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan interfaol usullar o'quvchi va o'qituvchidan kam kuch sarflab, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishni nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma'lumotni o'quvchiga yetkazish, ularda ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishda va baholashda o'qituvchidan ulkan mahorat talab etadi.

Noan'anaviy dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchilar faollashishi, qo'yilgan masalani hal etishda o'zaro uyushqoqlik bilan harakat qilishi zarur. Dars jarayoni vaqtining to'g'ri taqsimlanishi va savollarning aniq tuzilganligi o'quvchi faolligini yanada oshiradi. Buning uchun o'qituvchi dars maqsadini aniq qo'yishi, mavzuga mos bo'lgan usul va vositalarni to'g'ri tanlashi va puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Shundagina dars o'z maqsadiga erishadi.


An'anaviy darslarda sinfdagi barcha o'quvchilarning birdek darsdagi ishtirokini ta'minlash juda qiyin. Biroq noan'anaviy darslarni bu muammoni hal qilish oson kechadi. Noan'anaviy darslarda sinf o'quvchilarini guruhlariga ajratish, differensiallash mumkin. Aslida interfaol usullar kichik guruhlarda yanada yaxshi samara beradi. Interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning guruh bo'lib ishlash, bir-birining fikrini sabr bilan eshitish, hurmat qilish, bahamjihatlik, jamoa joylarida o'zini erkin tuta olishga o'rgatadi. Ammo guruh bo'lib ishlenganda ham ayrim o'quvchilarning ishtiroki sezilmay qolishi tasodifiy bo'lishi zarur.

Bola doimo kuzatuvchan, sinchkov bo'ladi. Bolada “Men”lik shakllangach, u atrof muhitni to'laroq idrok qilishga intiladi. U atrofidagi narsa va predmetlarning ranggi va shaklini oson idrok qiladi. Atrof-muhitdagi barcha jismlar bir necha xil geometrik figuralarning umumlashuvidan hosil bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning geometrik tasavvurlarini kengaytirishga katta e'tibor qaratiladi. Bola har kuni turli xil geometrik shakllarga duch keladi, xoh o'yin, xoh o'qish, xoh mehnat faoliyatida bo'lishdan qat'i nazar. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab bolalarga geometrik shakllar o'rgatib boriladi. Boshlang'ich ta'lim matematika darslarida esa, o'quv mashg'ulotlarining mazmun-mohiyati yanada kengaytiriladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida shakllarni o'rgatishda o'quvchilarni ko'proq atrofni o'rab turgan olam bilan chambarchas bog'lab o'qitilsa o'quvchi tasavvur olami yanada kengayadi, shakllarni idrok qilish imkoniyati ortadi, ularning kompetentligi yanada rivojlanadi. Birinchi darsdanoq mavzuni atrof-muhit bilan bog'lash o'quvchilarning aylana, to'g'ri chiziq, uchburchak, to'rtburchak kabi figuralar to'g'risidagi boshlang'ich tushunchalarni to'g'ri va aniq idrok eta olishni ta'minlaydi. Geometrik materiallar o'rganiladigan mavzularda interfaol metodlardan foydalanishning asosiy vazifalardan biri – bu

o'quvchilarning geometrik tasavvurlarini kengaytirish, geometrik tushunchalarni hayotga to'g'ri tadbiiq eta olishdir.

Boshlang'ich sinflarda geometrik shakllar mavzusini o'rganishda "Tarmoqlash" interfaol metodidan foydalanish o'quvchilarning yassi va fazoviy shakllarni bir-biridan farqlashga, ularni to'laroq anglashda yanada samaralidir.



Shakllarni o'rgatishda amaliy ishlar bilan bir qatorda didaktik o'yinlarni qo'llash samarali metodlardan biri hisoblanadi. Amaliy ishlar o'quvchilarning geometrik shakllar mohiyatini o'zlashtirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bularga qog'ozdan, simdan har xil turdagi shakllarni yashash ishlari kiradi. Shuningdek, shakllarning turli-tuman ekanligini ta'kidlash ham joizdir.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati barqaror bo'lmaganligi sababli bunday murakkab mavzularni o'rganishda didaktik o'yinlardan keng ko'lamda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar mavzuni nazariy bilim bilan bir qatorda, amaliy ishlar orqali kengroq o'rganadilar.

Amaliyot jarayonida ular predmetlari bilan ish olib boradilar, ko'zlari bilan ko'radilar, qo'llari bilan ushlaydilar, chizadilar, yasaydilar va predmetlarning boshqa xossalari ichidan asta-sekin shaklini ajratadilar. 1-2-sinflarda o'quvchilar shar, kub, doira, kvadrat, uchburchak kabi shakllarni to'g'ri ko'rsata oladilar. Ammo shakllarning turli xilda bo'lishi, o'chamlari juda katta yoki juda kichik bo'lishi bolalarni dovdiratib qo'yishi mumkin. Shakllarning nomlarini ko'pincha o'quvchilar predmetlarning nomlari bilan almashtirib qo'yadilar. Masalan: uchburchakni "burchak", "tom", "bayroqcha" v.k. Shu sababli matematik shakllarni o'qitishda dars jarayoni boshidan oxirigacha juda faol, amaliy mashqlardan keng foydalanilsa o'quv maqsadiga erishish imkoniyati yanada ortadi. Bunda o'quvchilar tayyor matematik shakllardan foydalanibgina qolmay, balki qirqish, yelimplash, yasash ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari kerak. Bundan tashqari ular atrof-borliqdagi narsa va predmetlar orasidan geometrik figuralarni taniy olishlari lozim. Shu jihatdan biz mashqlarni bajarishda "Kim chaqqon?" deb nomlanuvchi didaktik o'yidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


"Kim chaqqon?"

Bunda har bir o'quvchi bilan individual yondashuv bo'lishi lozim. Har bir o'quvchiga bittadan shaklni yasash vazifasi berilib, unga atrof-borliqdan misollar keltirish vazifasi yuklatiladi.

Masalan: aylana



Bunga jonli tabiatdan misol: Quyosh



Uchburchak:



корхонасининг фондидан ноқонуний равишда олинган бензинни ишлатиб юбориш). Айбдорнинг бундай ҳаракатлари, зарурий бел-гилар мавжуд бўлганда, талон-тароаж қилишни ташкил этиши мумкин. Анча миқдордаги зарар деганда, энг кам ойлик иш ҳақининг ўттиз бараваридан юз бараваригача бўлган миқдордаги зарар тушу-нилади (Жиноят кодексининг «Махсус» қисми, VIII бўлимига қаранг). Зарар миқдори етказилган моддий зарарнинг фактик ҳолатидан келиб чиқиб белгиланиши лозим. Агар шахс томонидан ҳаракат содир этилиши натижасида фактик жиҳатдан белгилангандан кам миқдорда зарар етказилган бўлса, бироқ, айбдорнинг нияти анча миқдорда зарар етказилишига қаратилган бўлса, қилмиш айбдорнинг ниятига қараб мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказишга суцқасд қилиш сифатида квалификация қилиниши лозим. Агар мулкни қасддан нобуд қилиш ёки зарар етказиш натижасида ушбу жиноят таркибини қамраб олмайдиган оқибатлар келиб чиқса (масалан, жабрланувчига тан жароқати етказилса), қилмиш жиноятлар жами бўйича квалификация қилиниши керак. Айбдор ўзига тегишли бўлмаган мулкни нобуд қилиш ёки зарар етказиш ҳуқуққа хилофлигини антлаб этади ва мулкдорга ёки мулкнинг бошқа эгасига анча миқдорда зарар етказилиши мумкинлигини кўра билади ва шу билан бирга бундай оқибат келиб чиқишини хоҳлайди ёки бунта онгли равишда йўл қўяди ёхуд улар келиб чиқишига нисбатан бепарво бўлади. Мазкур жиноят мақсади (тўғри қасддан) ва мотивининг мазмуни ғаразли ҳисобланмайди ҳамда қилмишни бошқа турдаги жиноятга (масалан, қўпоровчиликка) айлантирадиганларидан ташқари ҳар қандайи (безорилик, ўч олиш, ҳасад, рашк ва ҳоказо) бўлиши мумкин. Агар шахс мулкни қасддан нобуд қилиш ёки унга зарар етказишни миллатлараро ёки иркий адоват мотивлари бўйича содир этган бўлса ёки мулкка зарар етказиш айбдорнинг мулк тегишли бўлган ўзга шахс ёхуд улардан бири муайян бир ирққа, миллатга ёки халққа тегишлилиги тўғрисида субъектив тасаввури асосида содир этилса, мулкни нобуд қилиш сифатида қаралиши лозим. Айнан шахснинг кўрсатилган гуруҳга тегишлилиги ва анъ-аналарни амалга ошириши мулкнинг нобуд қилиниши ва унга зарар етказилишининг асосий сабаби ҳисобланади.

N.B.Adizova, H.Xudoyberdiyeva. O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI	62
A. E. Ashurova, E. D. Davlatovna. BUXOROGA BOSMAXONALARNING KIRIB KELISHI ONA TILI ADABIYOTIMIZNI TEKNOLOGIK RIVOJLANISH OMILI	64
F. M. Qosimov, M. F. Ibrohimova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA ARIFMETIK AMALLARNI QO‘LLASHDA TA‘LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	66
U.Sh. Tog‘ayeva, G.N. Roziqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	67
F. N. Abdullayeva. PEDAGOGIK TEKNOLOGIYANING ASOSIY JARAYONLARI	69
Sh.Y. Yusufzoda, X.Y. Yusufzoda. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	71

IV SHU‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....74

Сахновская Елена Геннадьевна. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ КОНВЕРГЕНТНОГО ПОДХОДА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	74
Hamroyev A. R., Hasanova M. A., Toyirova N. M. BIRINCHI SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA YOZUV QUROLLARIDAN FOYDALANIB, CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	77
Яценко Владимир Сергеевич. ГЕОГРАФИЯ КУЛЬТУРЫ ИГРУШКИ КАК ВАЖНЫЙ ПРАКТИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	78
Ш.Бабаева. МОДЕЛИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПОМОЩИ ПРОЕКТИРОВАНОГО ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ	81
Б.С.Жамилова. БОЛАЛАР КИТОБХОНЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ПЕДАГОГИК ТА‘LIM ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ.....	83
Д. Ш.Джуроева. МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ.....	86
Узакова А.Б., Рохатова З.И., Алимова А.Н., Фазилова Н.С., Бабаева Ш.Б. СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ И МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНИКОВ	90
G. M. So‘fiboyeva. KICHIK YOSHLI BOLALARDA GEOMETRIK FAZOVIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USLUBI	92
Sh.U.Sariyev. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘STIRISHDA O‘QISH VA ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	95
G.T.Cho‘lliyeva, K.Q.Siddiqova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	96
M. J. Saidova. TA‘LIMDA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	98
G. E. Saidova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	101
M. J. Saidova. MASOFAVIY TA‘LIMDA O‘QITISH IMKONIYATLARI VA USULLARI	102
G. E.Saidova, A. Sh. Qoryog‘diyeva. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O‘RGATISH	105
O‘. Olloqova, G. Murodova. MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK FIGURALARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METOD VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH	106
M. R. Hamroyeva, F.N. G‘afurova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	109
G. E. Saidova, S. F. Sanoqulova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARIDA UZUNLIK HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANRITISH, UZUNLIKLARNI O‘LCHASH MALAKALARNI HOSIL QILISH	112
M. H. Ozodova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI EGALLASH BOSQICHLARI.....	114
F.M. Qosimov. IJODIY TOPSHIRIQLAR VA ULAR TIZIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR ...	116
N.Adizova, D. Husenova. SINFLARDA UNLI TOVUSHLAR TALAFFUZI USTIDA ISHLASH.....	118